

# Istanbul Texnika Universitetiga TIQXMMI professorining rasmiy tashrifi

Shu kunlarda institut professori Obid Tursunov chet eldag'i bir qator universitetlari taklifiga binoan hamkorlikni amalda tashkil qilish va amaliy natijalarini kuchaytirish maqsadida xizmat safarida bo'lib turibdi. 7-aprel kuni professor O.Tursunov Turkiyaning texnika yo'nalishi bo'yicha eng yetuk universitetlaridan biri bo'lgan Istanbul Texnika Universitetiga tashrif buyurdi va ushbu universitet rektori professor Ismail Koyuncu bilan yopiq eshiklar ortida rasmiy uchrashuv o'tkazdilar.



Uchrashuv davomida Istanbul Texnika Universiteti (ITU) va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) o'rtasida ikki tomonlama aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, kesishgan sohalarda hamkorlik qilish va qo'shma loyihibar ishlab chiqarish, shuningdek, ikki tomonlama 1+1 dastur doirasida magistr va PhD tayyorlash belgilab olindi. Bundan tashqari ikki OTM kelishuv asosida xalqaro ilmiy simpoziumlar tashkil qilish va TIQXMMI professor-o'qituvchilarini ITU ilmiy-texnik bazasidan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilishi belgilab olindi. Shuningdek, tashrif davomida institutimiz professori Istanbul Texnika Universiteti (ITU) ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalari bilan yaqindan tanishdi.



**"ETvaQTEM" kafedrasи tayanch doktoranti N.Abdug'aniyev**

**TIQXMMI matbuot xizmati**